

LISON UT- TAYR DOSTONIDA TAVHID VODIYSIGA TAVSIF

*Ochiltoshova Kumushoy A'zamovna  
Hamroqulova Dilnura Obidjon qizi*

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

**Annotatsiya:** Tavhidda Men yo'q faqat U bor...

**Kalit so'zlar:** Vahdat, tavhid, solik, suluk, tajrid, tafriid.

«Lison ut-tayr» Navoiyning mashhur «Xamsa»dan keyingi oltinchi dostoni bo'lib, u shoir vafotidan sal ilgari, ya'ni hijriy 904 (1498-99) yilda yozilgan. «Lison ut-tayr» 3598 baytni o'z ichiga oluvchi 193 bob 65 hikoyatdan tashkil topgan bo'lib, hajm jihatdan shoir dostonlari orasida eng kichigi hisoblanadi. Tarqoq qushlar o'zi uchun podshoh tayinlashi kerak edi. Shunda Hudhud ularga Semurg' tarifini aytadi. Ular yetti vodiyni bosib o'tishi va Semurg'ni topishi kerak edi. Qushlar Semurg'ga yetishish uchun uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi.. Dostondagi hikoyalar Hudhud qushi orqali bayon qilinadi. Navoiy talqinidagi Hudhud komil inson ramzi bo'lish bilan birga muallifning dostonidagi birinchi raqamli timsoli hamdir. Navoiy tasvirlagan Hudhud yuksak irfoniy masalalarni har bir qushning darajasiga mos ravishda sodda hayotiy voqealar va misollar bilan tushuntirib beradi. Qushlarni so'ngigacha qo'llab- quvvatlaydi. Dostondagi beshinchi vodiylar Tavhid vodiysi- solik tafriid va tajrid maqomlarini kasb qilishi kerakligi aytiladi:

Vodiyi Tavhid ondin so'ngra bil,  
Fard o'lub tajrid ondin so'ng rabil...  
Barchag'a kom-u havo tajrid o'lur,  
Barchag'a lahn-u navo tafriid o'lur.

Tajrid va tafriid- tariqat maqomlaridir. Tajrid bu donyoga bog'likdan qutulish, zohidlik yo'liga kirish va botinda ham hech narsaga ehtiyoj sezmaslik bo'lsa, tafriidda solik nafsidan uzoqlashib, o'zining menligini inkor etishi faqatgina Alloh mavjudligini, Allohdan o'zga mavjud yo'qligini anglash. Allohning birligi va borligini anglash yo'lida o'z borlig'ini ham inkor eta olishdir. Rumiylar aytganidek: “ Uning yoniga ikki “Men” sig'maydi. Chunki, sen ham “Men” deyapsan, U ham “Men”. Yo sen o'l, yo u o'lsinki, ikkilik qolmasin. Ammo Uning o'lishi mumkin emas. Bu na zohirda, na zehnda mukindir. “Chunki, U o'lmagan bir tirikdir”(Qur'on, 25- sura, 58- oyat)”. Shunday ekan Tavhid vodiysida “Men”likni har qanday shaklda e'tirof etish- ikkilikka(“Men”- banda, “U”- Alloh) olib keladiki, bu Tavhid vodiysida katta adashishlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun, Navoiy bizga shunday ta'lim beradi:

Bir bo'l-u bir ko'r-u, bir de, bir tila,  
Mayl qilma munda ikkilik bila.

Vodiyini to'liq anglatish uchun Navoiy Mansur Halloj voqeasini keltiradi. Mansur tavhidda yuqori darajaga erishgan bo'lib, uning tilida doim “Anal-haq” jumlasini takrorlanardi. Din peshvolari unga dakki berib, bu hol ko'pgina suluk ahliga ayonligini, lekin ular odob saqlab, mo'tadillikni ta'minlaganliklarini aytishadi. Bir kuni hayol surib o'tirganida unig yodiga payg'ambarimizning Me'roj tunida Allohdan o'z ummati uchun shafqat so'rganini eslaydi, va uning ko'ngliga g'alati hayollar kela boshlaydi, Allohning lutfi haddan ziyod bo'lgan holda nega faqatgina o'z ummati uchun shafqat so'radi, barcha odamlarning gunohiga kaforat so'rasa bo'lmasmidi degan o'y bilan yuradi. Bu andisha uni ezib, ojizlik va hayrat qo'lida lol etar edi.

Bir kuni uning tushiga payg'ambarimiz kirdi va unga tanbeh berdi:

Onda menlikning xayoli yo'q edi,  
Balki bu lafz ehtimoli yo'q edi.  
Eltgan ul erdi boshlag'on ham ul,  
Istag'on ham ul, bag'ishlag'on ham ul...

Ul edi degon o'zi, berg'on o'zi,  
Bazl aro sochqon o'zi, terg'on o'zi.

Hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, Mansur Halloj tavhid mohiyatini to'la anglab yetmagani uchun "menlik" xayoli bilan "Analhaq" (Men - Haqman) jumlasini takrorlab yurar edi. Aslida tavhid vodiysida "men"likka yo'l yo'q, faqat Haq bor.

Navoiy Allohga iltijo qilib, "sen" va "o'zlik" shirkatini yo'qotib, sof birligi sari yetkarishini so'raydi. Menda "menlik"dan nishon qo'yma, meni hamma narsadan etak silkitib, o'zligmda yo'qotib yubor!.." deb so'raydi. Va yana bir hikoya keltiradi. Unda Shoh Mahmud va Ayozi haqida voqea bayon qilinadi. Shoh bir kecha Ayozi yoniga borib, uning nima bilan mashg'ulligini bilmoqchi bo'ladi. Ayozi o'zini uxlaganga solib yotgan bo'ladi. Shoh unga boqib, uning husniga to'ymasdan, o'zidagi shavq o'tiga chora topmoqchi bo'ladi. Shoh o'zini uning oyog'iga tashlab, ko'zlarini tovoniga sura boshlaydi. Ayozi uying o'qligini bilgach ranjigan ohangda dedi:

- Ey Ayozi senga muhtoj holimda nega o'rningdan turib, menga mehr ko'rgizmading, biror so'z demanding?
- Ey sohibnazar menda u dam menlik yo'q edi, biror kishiga uzr aytish uchun majol ham qolmagan edi. U dam Ayozi yo'q edi, faqat shoh bor edi, ham unga oshiq, ham unga suyuqli edi. Vahdat kimga bunday g'avg'o solsa, unda sultondan Ayozi farqi bo'lmaydi. U birlik olamidan xabar topadi. "Menlik" va "senlik"dan unda asar ham qolmaydi. Har kim azaldan yakka qilib yaratilgan, ajralish va yolg'ilanishni bunga bosh qilingan. Kimki agar o'zligidan butkul qutulgan bo'lsa, o'z oldingda o'shaning tavidini yaxshi sanaladi. Kimgakim tavidni ochib bergan bo'lsa, uni madh etib, hatto kufr bilan ham do'stlashtiradi. Kimni vahdat sari boshlagan bo'lsa, unda faqat Alloh qolib "u" va "bu"larni inkor qildiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.Navoiy «Lison ut-tayr» Toshkent: 1991-yil.
2. Lison ut-tayr. Alisher Navoiy.(nasriy bayoni bilan ). - T .: G ' .G 'ulom nomidagi NMIU , 2005
3. shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik [Матн ] Q. 1: darslik / Sh. Sirojiddinov [va boshq .]. — Тошкент: «TAMADDUN» , 2018.